

ONA TILINING JAMIYATDAGI ROLI

Ravshanova Sevara Jahongir qizi

ToshDO‘TAU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tilining kelib chiqish tarixi va ona tilining jamiyatdagi roli haqida ma’lumot beriladi. Ona tilining jamiyatdagi sotsial maqomi va sotsial roli hozirgi kunda qay darajada ahamiyatga egaligi, sotsial maqom va sotsial rol o‘zi nima ekanligi, hozirgi kunda biz ona tilimizdan qay darajada foydalanyapmiz, avval biz qay darajada foydalanganmiz, uning mavqeyi qay darajada ekanligi haqida ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Ona tili, sotsial maqom, sotsial rol, ona tili tarixi.

Annotatsion: This article provides information about the history of the origin of the mother tongue in society. What is the social status and social role of the mother tongue in society today? What is the social status and social role to what extent it is reported.

Keywords: Mother tongue, social status, social role, history of mother tongue.

Bilamizki, ona tilini o‘rganish tarixi sakkizta davrga bo‘lib o‘rganiladi. Masalan, birinchi davrni oladigan bo‘lsak, bu davr O‘rxun – Enasoy yodgorliklari davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda yozuvlar qoyatoshlarga bitilganligi sababli tosh bitiklar deb ham atalgan. Turk yodgorliklari sayrgohlarda odamlar gavjum joylarda qo‘yilgan. Bundan ko‘rinadiki bu yozuvlarni o‘qiy olgan xalq savodli bo‘lgan. Bundan ko‘rinadiki ona tilimiz o‘sha paytda ham oz bo‘lsada o‘zining mavqeyiga ega bo‘lgan ekan. Ayniqsa Temuriylar davrida ona tilida ta’limga to‘xtaladigan bo‘lsak. Bu davrda ona tiliga katta e’tibor qaratilgan. Masalan Amur Temurning “Temur tuzuklari asari” asari A.A.Semyonov, Ch.Re.E.G.Braun hamda boshqalarning so‘zlariga qaraganda asar turkiy tilda yozilgan va nusxasi Yaman hokimi Ja’far poshshoning kutubxonasida saqlangan. Bundan tashqari Alisher Navoiyning temuriylar davrida yetishib chiqqanligi ham, Husayn Boyqaroning

turkiy tilda asarlar yozish to'g'risidagi farmoni ham o'sha davr hukmdorlarining mazkur tilga munosabatini yaqqol tasdiqlaydi. Fikrimizning dalili sifatida Zahriddin Muhammad Bobur tomonidan turkiy tilda yaratilgan durdona asarlarni ham eslatib o'tishimiz o'rinlidir. XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida o'zbek tilida ta'limga to'xtaladigan bo'lsak. O'z davrining madaniy hayotida muhim o'rin tutgan Abulg'azi Bahodirxon XVIII asrning dastlabki choragida hukmronlik qilgan, fors-tojik, arab, mo'g'ul tillarini yaxshi bilgan. Undan bizgacha meros qolgan "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" asari turk tili, nafaqat turk tili turkiy, balki turkiy xalq tarixi haqida ma'lumot beradi.¹ Bundan ma'lum bo'ladiki ona tilimiz bir qancha tarixni bosib o'tganligi, o'zining tarixiga, o'zining mavqeyiga ega bo'lgan ekan. Hozirgi kunda ona tilimizning mavqeyi qanday? degan savolga to'xtaladigan bo'lsak. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tilimizga katta e'tibor qaratila boshlandi. Davlat hujjatlari o'zbek tilida olib borila boshlandi. – Necha o'n yildirki, til, imlo, til ta'limiga oid bahs-munozaralar tinmaydi. Davlat qarorlar, farmonlar chiqarib mablag' ajratyapti olim – u tadqiqotchilar ilmiy ish yozyaptilar, katta-kichik anjumanlar o'tkazilyapti, sohaga doir har turli kitoblar keragidan ortiqdek, jo'yali takliflar ham istagancha topiladi. Lekin natija... Bizda hozir masala o'zbek tilini saqlab qolish emas – mamlakat ichidagi mavqeini ko'tarish, tashqarida esa dunyo e'tiboridagi tillardan biriga aylantirish bilan bog'liq deb o'ylayman. Shu manzarada tilshunos olim, millat oydini sifatida sizga o'nlab savollar bergisi keladi kishining. Til muammolari XXI asr odamining hayotida nechog'lik ahamiyatga ega? Taraqqiyot zamonida akasar xalqlarning kun tartibidan allaqachon tushib ketgan muammolarga bandi bo'lib qolmayapmizmi? Til masalalari yechimini kengroq ko'lamda izlash – qudratli iqtisodiyot va harbiyot, muhim ilmiy kashfiyotlar, xalqaro darajadagi ishbilarmonlik uning nufuzini oshirishga kuch berish, o'zgalar tilimizni zaruriy ehtoyoj tufayli o'rganishi, hurmatlashiga erishish kerakmikan...? – Til, unga doxil alifbo-imlo va talim masalalari biz uchun og'riqli ekani haq-rost. Aslida muammolari bizning asrimizda har bir inson uchun hayot-mamot ahamiyatiga ega. Bugungi global dunyoda bir necha tilda samarali muloqot qila olish fazilatga aylandi, til bilgan kishi bizni kasb-u kor va ijtimoiy munosabatlarda talay

¹ Yuldosheva Dilorom Nigmatovna "O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Durdona" nashriyoti Buxoro-2021.

ustunliklarga ega. U turli mamalakatva madaniyat vakillari bilan erkin muloqot qila oladi, dunyoqarashini kengaytiradi va yangi imkoniyat eshiklarini ochadi. To'g'ri ayrim rivojlanga mamlakatlarda til muammolari allaqachon hal etilgan, biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda u dolzarbligicha qolmoqda. Umuman olganda, til muammosi – taraqqiyot darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tariximizga nazar salsak, til masalasi qoraxoniylar, temuriylar, shuningdek, jadidlar davrida alohida alohida ahamiyat kasb etganiga guvoh bo'lamiz. Bu – zamon burilishlari, ko'tarilishlar, ma'naviy evrilishlar bilan hamohang kechgan. Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ushbu masala yana kun tartibiga chiqdi. Davlat tili muammosi siyosiy, ijtimoiy, ilmiy, huquqiy, falsafiy, tarixiy, madaniy, ma'naviy, tashviqiy hodisaki, unga tor yoqlama yoki bir fokusdan qarash maqsad yo'lida to'siq bo'ladi. Deylik, uning mamlakat miqyosida ijtimoiylashuvi muammosini olaylik. Albatta, boshqalarni davlat tilini o'rganish va hurmat qilishga majburlab bo'lmaydi. Til odamlar uchun, avvalo, jozibali va manfaatli bo'lishi kerak, shunda uni ixtiyoriy o'rganadilar. Jozibador til muhitni yaratmoq yo'lida, siz qayd etganingizdek iqtisodiyot, ilmiy kashfiyotlar, samaradorligini oshirish va xalqaro biznes kuchidan foydalanish kerak. Davlat tilining ijtimoiylashuvi uchun: 1) madaniyat, san'at va adabiyotni targ'ib qilish, festivallar va ko'rgazmalar o'tkazish, xalqaro auditoriyani jalb etadigan anjumanlar tashkil etish; 2) til ta'limining zamonaviy talablarga javob beradigan va so'zlashuvchilarga qulay dasturlarni yaratish; 3) tilni kundalik hayotda o'rganish va undan foydalanishga yordam beradigan ko'p tilli platforma va ilovalarni ishlab chiqish; 4) tarjima va lingvistik xizmatlarni rivojlantirish, rasmiy va ilmiy materiallarning yuqori sifatli tarjimasiga erishish; 5) tilni muhim muloqot manbai sifatida targ'ib qilish maqsadida xalqaro anjumanlarda faol qatnashish; 6) qonuniy soslarni kuchaytirish hamda ularning tizimli ijrosini kafolatlash lozim. Biz hozir faqat qonuniy asoslarga urg'u berish, uni talab qilishga odatlanib qoldik. Ilmiy va ta'limiy masalalarga e'tibor esa ko'ngildagidek emas: imlo va talaffuz me'yorlari bo'yicha tadqiqotlar deyarli yo'q. Tilimizning faqat yozma me'yorlari o'rganilgan jonli og'zaki nutq esa tuzuk-quruq tadqiq etilmagan. Bu, ayniqsa, o'zbek tilini xorijliklarga, adabiy tildan yiroqroq sheva vakillariga o'rgatishda muammo tug'dirmoqda. Tilshunoslikda kosmopolitizmdan voz kechib, fanni hayotga, jamiyat ehtiyojlariga yaqinlashtirish kerak. Masalan, o'zbek tilida kompyuterda

harf terayotgan kishi xatolarini “To‘g‘ri yozish” funksiyasi asosida tuzata olsa, qo‘rqmasdan yozadi. Shuning o‘zi o‘zbek tili jozibadorligining bir na‘munasi emasmi? Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Aslida, til me‘yorlarini xorijiy til sifatida o‘rganganlar ko‘proq saqlab qoladi. Bugun keng ommalashgan ingliz tilining ilmiy me‘yorlariga, asosan, uni xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar rioya etadi. Chunki ular tilni darslik va qo‘llanmalar asosida o‘rgangan. Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘rganuvchi va so‘zlashuvchilar uning asl sohiblaridan ko‘p. Ko‘pchilik esa ozchilikka odatda kuchliriq ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda tilimizni xorijiy til sifatida o‘rganuvchilar uchun qulay o‘quv metodik vositalarni tayyorlashga e’tiborni kuchaytirish kerak.

– Til korpuslari bugungi tilshunoslikning katta yutug‘i. Tilga e’tibor uning korpusiga e’tibor til nufuzi uning korpusi nufuzi bilan belgilanadigan zamon bo‘lib qoldi. Zamonaviy axborot texnologiyalari tilning funksional imkoniyatlaridan foydalanishga kuchli dastak berdi.² Ona tilining jamiyatda qanday mavqega ega bo‘lishi aslida o‘zimizning qo‘limizda hisoblanadi. Biz ba‘zan do‘konga chiqsak yoki ko‘chada ingliz insonni yoki boshqa millat vakilini ko‘rsak ularga o‘zining tilida gapirishga harakat qilamiz. Aslini olganda bu xato hisoblanadi. Ayrim chet el fuqarolarini ko‘rganmiz, ularga o‘zlarining tillarida gapirganimizda menga o‘zingizning tilingizda gapiring deyishganini eshitganmiz. Ular bizning tilimizga shunchalik e’tibor berishar ekan biz nega e’tibor bermasligimiz kerak. Ko‘chalardagi reklamalarga qaraydigan bo‘lsak ularda ham bir qancha xatolarni ko‘rishimiz mumkin. Bu bizning ona tilimizni yaxshi bilmasligimizdan dalolat beradi, albatta barchasi shunaqa deb bo‘lmaydi. Oramizda ona tilini yaxshi biladigan uning mavqeyini ko‘klarga ko‘taradigan professorlarimiz ham talaygina. Biz ona tilimizni yuqoridagi muammolarga duch kelmasligi uchun himoya qilishimiz kerak. “Men o‘zbek shoiriman, o‘z xalqimning tiliman”, deb yozgan G‘afur G‘ulom bu gapda faxr-g‘ururdan tashqari, uning zamirida juda katta yuk borligini ham nozik fahm etgan. O‘z xalqining tilini butun nafosat-u ifori bilan bilishda XX asr o‘zbek adabiyotida u benazir edi deyilsa, mubolag‘a emas. Xalq tili va mumtoz adabiyotimizga xos ko‘plab hamma ham

² Forum.oyina.uz “Shu sohada ishlayotganimdan hijolatda yuraman – tilshunos Baxtiyor Mengliyev ta’limdagi muammolar haqida”

bilavermaydigan soʻzlarni oʻz oʻrnida qoʻllash, shunday qoʻllash oqibatida badiiy matn, poetik manzara va ifoda yaratish akademik shoir sheʼriyatining xos belgilaridan boʻlsa ajab emas. Shoir va adib qoʻllagan soʻzlar; u xoh biror bir sohaga sohaga tegishli boʻladimi, xoh mavjud soʻzlar, u xoh biror tor sohaga tegishli boʻladimi, xoh mavjud soʻzlar asosida yasalgan yangi soʻz, neologizmlar boʻladimi, hamisha badiiy niyatga xizmat qiladi. Mana, alloma vafotidan keyin chop etilgan toʻrtlik:

“Dunyo qoʻling kiridir”, deganlari rost axir,

Qoʻlom, toʻpol qoladi zargarning koʻrasida,

Millionerdan soʻrasang maydasi yoʻq bir paqir,

Brilliant – koʻmir demak atom gilboʻtasida,

...adibning tilga soʻzga munosabati haqida gapirar ekanmiz, avvalo, tildan qanday foydalaniladi, bunda asosiy narsa, soʻz orqali badiiy matn yarata oladimi, ishlatgan har bir soʻzi oʻz oʻrniga tushib, oʻzidan kattarib, jilolanadimi, kitobxon qalbi shuriga nur olib kira oladimi? Ushbu savollar juda muhim va ularga javob ijobiy boʻlgan taqdirdagina shu adibni mohir soʻz ustasi, soʻz sanʼatkori deya olamiz. Gʻafur Gʻulom soʻz sanʼatkori edi. (Suvon Meli, “Soʻz xiyoboni”) Demak, ona tilining jamiyatdagi ahamiyatida, uning insonlar qalbidan joy olishida, unga boʻlgan hurmat hissini his qilishimizda yozuvchi, shoirlarimizning ham ahamiyati katta ekan. Oʻzbek tilining taraqqiy etib borishini, uning har tomonlama kamolotini davlat miqyosida taʼminlash, yaʼni oʻzbek tiliga davlat tili maqomini berish respublikamiz aholisining diqqat markazida turgan favqulodda masalalardan biridir. Bu muammoning ijobiy hal qilinishi hozirgi sharoitda eng oqilona yoʻl boʻlishi shubhasiz. Yana shu qam aniqki, oʻzbek tilining davlat tili maqomini olishi respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillari tillarining mavqei va taraqqiyotiga sira toʻsiq boʻlmaydi, aksincha, bu tillarning yanada rivoj topib borishi uchun koʻmaklashadi. Bir til qadrining oshishi boshqa tillarga ham hurmatni taʼminlaydi. Tilni chinakamiga eʼzozlash xalqlar qadriga yetish, komil doʻstlik rishtalarini mustahkamlash demakdir. Keyingi paytlarda “Oʻzbek tili inqirozga yuz tutmoqda”, “Ona tilimiz halokat yoqasiga kelib qolgan” qabilidagi gaplar qam quloqqa chalinmoqda. Lekin Oybek, Gʻ. Gʻulom, A. Qahhor, O. Yoqubov, P. Qodirov, A. Oripov, E. Vohidov, O. Matjon kabi qator soʻz ustalari yaratgan, yaratayotgan dilbar asarlar, ularning tili bu qarashni maʼlum darajada

inkor etadi. Albatta, adolat yuzasidan aytish kerakki, tilimiz imkoni bor joylarda rivoj va sayqal topib borgan bo'lsa-da, uning ish ko'rish va faoliyat doirasi o'ta chegaralanib qolgan edi. Ha, o'zbek tilining qadri juda tushib ketdi. Birgina uning rasmiy-ish uslubi olib ko'rilsa ham, shunga amin bo'lish mumkin. 20-yillarda rus tilidan andoza olish tufayli shamoyil topgan «Ushbu spravka berildi shul haqdakim, haqiqatan ham bul o'rtoq shul joyda yashab turadi» tarzidagi noo'zbekcha ma'lumotnoma-hujjatlar hamon yozib kelinmoqda. O'zbek tilining shirasi, go'zalligi, jozibasi, nazarimda, badiiy adabiyotdagina saqlanib qolgan. Ayni choqda, uning uy-ro'zg'or tiliga aylanib qolganligini taassuf bilan ta'kidlash kerak. Bugungi kunga kelib, ona tilini o'qitishday muhim borada talay muammolar yig'ilib qolganligi, kamchiliklar behisob ekanligi ayon bo'lmoqda. Ona tilini o'qitishni yanada yaxshi yo'lga qo'yish hayotiy zaruratga aylandi. Tilga muhabbat, uning qonuniyatlarini chuqur bilish va hurmat qilish axloqiy-ma'naviy "gigiena"ga rioya qilishning bosh ko'rsatkichi. Tom ma'nodagi milliylik va internatsionalizm, vatanparvarlik tuyg'usining ibtidosi ham asli shundan boshlanadi. Ona tilini, uning qonun-qoidalarini yaxshi bilmaslik boshqa tillarni muvaffaqiyatli o'rganishga qam xalaqit beradi. Shunga qaramasdan, turg'unlik davrida internatsional tarbiya, rus tilini o'rganish va boshqa masalalar yuzasidan qator tadbirlar belgilandi. Ammo, afsuski, ona tilining roliga yetarli e'tibor qilinmadi. Shuning oqibatida mazkur tadbirlar samarasi ko'ngildagidek bo'lmaganligi bugun hammaga ravshan.³ Shuni ham ta'kidlash joizki, kuni kecha ichki ishlar vazirligi tomonidan normativ-huquqiy hujjatlar muhokamalari portaliga joylashtirilgan "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi ham davlat tilining huquqiy maqomi, amaliy ahamiyatini oshirish borasida navbatdagi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, tizimda davlat tili targ'ibotiga qaratilgan ma'naviy - ma'muriy tadbirlar ham olib borilmoqda. Soha xodimlarining davlat tilida ish yuritish bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida tashkil etilgan Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va

³ Ziyouz.com Kutubxonasi Nizomiddin Mahmudov "Til mavqei – el mavqei (1989) "Yoshlik" jurnali, 1988-yil, 6-son

malaka oshirish markazi bilan ikki tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolaniib, zaruriy chora-tadbirlar belgilanmoqda.⁴ Bundan o‘zbek tilining jamiyatdagi o‘rni katta ahamiyatga egaligini anglashimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkin, har bir xalqning kelajagini, o‘tmishini ona tili bildirib turadi. Uning jamiyatimizda qay darajada o‘ringa ega bo‘lishi esa biz xalqning qo‘lidadir. Bilamizki, mustaqillikka erishganimizdan so‘ng ona tilimizning jamiyatdagi o‘rni yanada katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Tilimizning rivojlanishiga xatto sarmoya ham kiritildi. Bir qancha qonun qoidalar ham ishlab chiqildi. Ulardan biri barcha hujjatlarning davlat tilida olib borilishidir. Shuning uchun ham tilimizga bo‘lgan mehr-muhabbat bolaligimizdan boshlanadi. Axir bejiz aytishmaydida: “Tilga e’tibor – elga e’tibor” deb.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna “Ona tilini o‘qitish metodikasi”, “Durdona” nashriyoti. Buxoro, 2021. 404 bet.
2. Forum.oyina.uz “Shu sohada ishlayotganimdan hijolatda yuraman –tilshunos Baxtiyor Mengliyev ta’limdagi muammolar haqida”.
3. Ziyouz.com. Nizomiddin Mahmudov “Til mavqei – el mavqei” (1989), “Yoshlik” jurnali, 1988-yil, 6-son.
4. Mehnat.uz G‘aybulla as-Salom "Til – jamiyat tayanchi "
5. O‘quv qo‘llanma “Sotsiolingvistika”, Toshkent “Universitet” 2014, 232 bet.

Referens:

6. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna “Ona tilini o‘qitish metodikasi”, “Durdona” nashriyoti. Buxoro, 2021. 404 bet.
7. Forum.oyina.uz “Shu sohada ishlayotganimdan hijolatda yuraman –tilshunos Baxtiyor Mengliyev ta’limdagi muammolar haqida”.
8. Ziyouz.com. Nizomiddin Mahmudov “Til mavqei – el mavqei” (1989), “Yoshlik” jurnali, 1988-yil, 6-son.
9. Mehnat.uz G‘aybulla as-Salom "Til – jamiyat tayanchi "
10. O‘quv qo‘llanma “Sotsiolingvistika”, Toshkent “Universitet” 2014, 232 bet.

⁴ Mehnat.uz G‘aybulla as-Salom “Til – jamiyat tayanchi”